




6-rasm Zararlangan o'simliklar soni (foiz hisobida)

chakkana bilan zararlanishga moyillik kamayishi, qumga yaqin hududlarda esa o'rgimchakkana bilan zararlanishga moyillikning ortishi kuzatiladi. Olingan natijalarga asosanib g'o'za navlarini joylashtirishda yoki tumanlashtirishda qumga yaqin bo'lgan hududlarga imkon boricha o'rgimchakkana bilan zararlanishga chidamli navlarni joylashtirish zarur. G'o'za navlarini yaratishda o'rgimchakkana bilan zararlanishga moyilligini baholash muhim elementlardan biri hisoblanadi. Ular namlikni ortishi bilan hayot faoliyati susaya boradi. Tajribalarimizda o'rgimchakkana bilan zararlangan baland bo'li dalalardagi g'o'zalar sug'orilgach o'rgimchakkalarning ko'pchiligi nobud bo'lgan. O'rgimchakkana asosan iqlimi quruq bo'lgan hududlarda, suv tanqis bo'lgan dalalarda ko'proq tarqilishi yuzasidan ma'lumotlar mavjud.

Xulosa shuki, Xorazm viloyatining qum atrofidagi g'o'za dalalari o'rgimchakkana bilan zararlanishga moyilligi aniqlandi. Shunday holat mavjud bo'lganligi uchun o'rgimchakkana chidamli g'o'za navlarini aniqlab ularni qum atrofidagi maydonlarga ekishni tavsiya qilamiz.

ADABIYOTLAR:

1. Kranthi K. R. et al. Insecticide resistance in five major insect pests of cotton in India Crop protection. 2002. T. 21. S. 449-460.
2. Esanbaev Sh, Raxmanov A. X, Karanov A. A. G'o'zaning asosiy so'ruvchi zararkunadalariga qarshi kurash yug'unlashgan kurash tizimidan foydalanish. "O'zbekiston agrar fani xabarnomasi" 3 9/2 2023 167 b.
3. Erdogan, P., Yildirim, A. and Sever, B. 2012 Investigations on the effects of five different plant extracts on the two spotted spider Tetranychus urticae Koch (Arachnida: Tetranychidae). Psyche, (10): 1155- 1159
4. Nazife Sulek, Ibrahim Chakmak 2024 Performarce of Tetranychus urticae (Acari: Tetranychidae) on six cotton varieties with varying degree Systematic and Applied of leaf pubeserse acarology vol 29 No 1 2024
5. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/pahta_hosildorligi_qanday_oshiriladi?ysclid=lse8c6oukn953195300
6. https://uza.uz/oz/posts/paxta-2023-31-mingdan-ortiq-fermer-xojaligining-60-foizida-kozl原因-reja-ortigi-bilan-bajarildi_526820

UO'T: 633.511: 631.52

KICHIK NAV SINASH KO'CHATZORIDA G'O'ZA NAVLARI CHIGITINING UNIB CHIQISH XUSUSIYATI

Islamov Ilxom Turdiyevich, tayanch doktorant,
Xilola Chorjeva, q.x.f.b.f.d. (PHD), katta ilmiy xodim

Annotatsiya. Ingichka tolali g'o'zaning *G.barbadense* L. turiga mansub g'o'za navlarini o'suv davri davomiyliigi, birinchi hosil shoxining joylashish bo'g'ini, bitta o'simlikdagi ko'saklar sonini, bitta ko'sakdagi paxta vaznini, g'o'za navlarining mahsuldorligi, tola uzunligi va xosildorligini o'rganish.

Kalit so'zlar: g'o'za, *G.barbadense* L., tola uzunligi, mayinligi, pishiqiligi, o'suv davri davomiyliigi, hosil shoxi, ko'sak soni.

Аннотация. Тонковолокнистый Г.барбаденсе Л. продолжительность вегетационного периода сортов хлопчатника, относящихся к типу хлопчатника, расположение сочленения первой ветви урожая, количество соцветий на одном растении, масса хлопка в одной соцветии, продуктивность сортов хлопка, длина волокна и урожайность изучаются.

Ключевые слова: хлопок, *G.barbadense* L., длина волокон, мягкость волокон, созревание волокон, прочность волокон, продолжительность периода роста, урожайность, количество плодов.

Abstract. Thin fiber *G.barbadense* L. the duration of the growing season of cotton varieties belonging to the type of cotton, positioning joint of the first crop branch, the number of breasts in one plant, cotton weight in one breast, productivity of cotton varieties, fiber length and yield study.

Keywords: cotton, *G.barbadense* L., fiber length, fiber softness, fiber maturation, fiber strength, duration of growth period, harvest horn, fruit count.

Kirish. Dunyo bo'yicha paxta etishtiruvchi mintaqalarda o'rta tolali g'o'za navlari ishlab chiqarishning 70 fozini, ingichka tolali navlar hamda Hindi-Xitoy g'o'zalari 30% ni tashkil qiladi. G'o'zaning *G.barbadense* L. turiga mansub ingichka tolali navlari tola uzunligi, mayinligi va pishiqiligi bo'yicha ajralib turadi. Bunday

navlar asosan AQSH, Xitoy, Hindiston, Misr va G'arbiy Afrika davlatlarida yetishtiriladi.

Ma'lumki, O'zbekiston tabiiy tuproq-iqlim sharoitlariga ko'ra, o'simliklarning ko'plab turlarini yetishtirish bo'yicha qulay mintaqalardan biri xisoblanadi. G'o'za ayniqsa uning ingichka

tolali navlari issiq sevar Jaxonda 19,5-20,1 mln.t. paxta tolasi ishlab chiqarilib, shundan 1,2 mln. tonnasi ingichka tolali Ia, I, II, III tip tola beruvchi g'o'za navlari xisobiga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda yuqori sifatli (nomerli) kalava ip ishlab chiqarishga mo'ljallangan, o'ta uzun, mayin, ingichka tolali paxta yetishtirishga to'qimachilik sanoati tomonidan talab kuchaymoqda.

Keyingi yillarda Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida amal davrida haroratning keskin ko'tarilishi, shuningdek garmselning ko'p bo'lishi tufayli ushbu voxalarda ekilib kelinayotgan o'rta tolali g'o'za navlari hosil elementlarining to'kilishiga olib kelmoqda. Hududlarning o'ta issiq iqlimga bardorshli bo'lgan g'o'za turlari yoki navlari joriy etish bo'yicha hukumat darajasidagi chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirish vazifalari qo'yildi. Shular qatorida o'ta issiq iqlimli hududlarga g'o'zaning ingichka tolali turiga mansub yaratilgan g'o'za navlarini joriy etish hamda ularga mos bo'lgan agrotehnologiyalar tizimini tadbir etish ko'zda tutilgan edi. Chunki, ingichka tolali g'o'za navlari biologik xususiyatlarga ko'ra, o'rta tolali g'o'za navlariga nisbatan tabiiy ekstrimal sharoitlariga, jumladan, suvsizlikka, garmselga va boshqa tabiiy noqulayliklarga bardoshli xisoblanadi. Shuningdek, ingichka tolali g'o'za navlari morfobiologik jihatdan o'rta tolali g'o'za navlaridan farqlanadi. Ya'ni poyasining tuklanganligi, barg plastinkasining qalinligi va boshqa xususiyatlari ularning zararkunandalarga bardoshli ekanligini ko'rsatadi. Bu ayniqsa, keyingi yillarda janubiy mintaqalarda, jumladan Surxondaryo viloyatida g'o'zaning g'o'za qandalasi kabi o'ta xavfli xashorotlar zararidan saqlanishga fermer xo'jaliklariga qo'l keladi. Bu esa mamlakatimiz janubiy mintaqalari paxtachiligi kelajagi uchun muxim strategik chora-tadbirlardan biridir.

Shuni xam ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonning yirik seleksioner olimlari M.S.Istomin va Ye.G.Gavrilovlar Surxondaryo viloyati sharoitida o'rta va ingichka tolali g'o'za navlarining voxada garmselga bardoshlili o'rganilganda hosil elementlarining to'kilishi o'rta tolali g'o'za navlarida 75% ni, ingichka tolali g'o'za navlarida esa 35% ni tashkil etishi aniqlangan. O'z-o'zidan ingichka tolali g'o'zalar o'rta tolalilarga nisbatan voxa iqlimga mos kelishi isbotlab berilgan. Undan tashqari bugungi kunda Surxondaryo viloyatida suv resurslarining cheklanganligini va xavo xaroratining nisbatan ko'tarilishini ham e'tiborga olish kerak deb hisoblaymiz.

2022-2023 yillarda Ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti (ITPITI) tajriba dalalarida "Intinsiv navlar seleksiyasi" bo'limida laboratoriya xodimlari tomonidan olib borildi. Tadqiqotlarda fenologik kuzatuvlar "Dala tajribalari o'tkazish uslubiyoti (2007) va "Metodika polevnykh opytov s xlochatnikom" (O'zPITI 1981), va Tuproq va o'simliklarni agrokimyoviy tarkibi PSUEAITI ning yoppasiga taxliil laboratoriyasida amalga oshirilgan, hosildorlik ko'rsatgichlariga B.A.Dospexov (1966y) uslubi bilan matematik ishlov berilgan. Tajribalar Termiz tumanida joylashgan Ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba dalasida o'tkazilgan.

2023 yilda terib olingan yakka tanlov va namunalar yanvar oyida laboratoriya taxlilida o'tkazilib, tola chiqimi past, tola uzunligi talabga javob bermaydigan duragaylar, oilalar va tizmalar chiqitga chiqarildi. Qolgan 303 dona duragaylar, oilalar va liniyalari chiqiti qo'lda ekildi. Bundan tashqari Termiz-202, Termiz-208 va SP-1607 navlaridan terib olingan urug'lik chiqitlari urug'lik ko'paytirish ko'chatzorlariga ekildi.

Chatishtirish natijasida olingan duragaylarni F_1 - F_3 biologik ko'chatzorlariga ekildi va to'liq unib chiqdi.

F_4 - F_6 seleksion birinchi, ikkinchi yilgi ko'chatzorlarida. F_4 biologik ko'chatzordan olingan oila va yakka tanlovlar ekilib, oilalar

ichidan tizmalar ajratib olindi va kichik nav sinash ko'chatzoriga ekildi. Jumladan, o'rta tolali g'o'zaning seleksion ko'chatzoriga mansub bo'lgan L-152xTermiz-229; T-210xTermiz-202xML-70; L-141xTermiz-202(a); (Termiz-202xT-49)x(L-115xL-617)xT-101 duragaylari va o'rta tolali g'o'zaning seleksion ko'chatzorlariga mansub bo'lgan. F_4 (Su-21 x Buxoro-102) x (L-40 x T-24) x (Buxoro-6 x Namangan-77) x L-315; F_4 (Su-21 x Buxoro-102) x (9871 x ST-7603) x (At-Termiziy x Denov) x L-315 kabi ko'p pog'onali chatishtirish natijasida olingan duragaylar ustida seleksion jarayonlar davom ettiriladi.

1-jadval.

Ingichka tolali kichik va katta nav sinash tajriba dalasida chigit unuvchanligi(%).

T/r	Navlar	I	II	III	IV	O'rtacha
1	ST-Surxon-14	80	95	90	90	88,7
2	L-96	75	95	90	95	88,7
3	L-118	80	85	95	95	88,7
4	L-261	90	95	85	95	91,2
5	L-205	88	90	85	85	87,0
6	L-128	85	85	90	90	87,5
Katta nav sinovi						
1	ST-Surxon-14	85	85	75	80	81,2
2	Termiz-230	90	90	85	78	85,7
3	Termiz-232	75	90	80	75	80,0
4	Termiz-233	85	90	85	80	85,0
5	Termiz-234	80	90	85	85	85,0
6	Termiz-235	78	85	90	85	84,5

Surxon-14 naviga nisbatan ingichka tolali kichik nav sinash ko'chatzorida L-261 (91,2%), 3 foizga unuvchanligi yuqori ekanligi kuzatildi. Katta nav sinash tajriba dalasida Termiz-230; Termiz-234 seleksion navlari 4-5 foizgacha erta unib chiqqanligi kuzatildi.(jadval-)

2-jadval.

Ingichka tolali kichik va katta nav sinash ko'chatzorida g'o'zaning 50% gullashi, kun hisobida

T/r	Nav va liniyalari	I-q	II-q	III-q	IV-q	O'rtacha
1	ST-Surxon-14	60	58	58	58	58,5
2	L-96	58	58	58	58	58
3	L-118	58	58	58	59	58,25
4	L-261	58	58	58	59	58,25
5	L-205	58	58	58	57	57,75
6	L-128	58	58	58	58	58,0
Katta nav sinash						
7	Surxon-14	56	58	57	58	57,25
8	Termiz-230	56	58	58	57	57,25
9	Termiz-232	57	57	58	58	57,5
10	Termiz-233	56	58	58	57	57,25
11	Termiz-234	57	57	57	57	57,0
12	Termiz-235	59	59	58	58	58,5

St. Surxon-14 naviga nisbatan ingichka tolali nav sinash ko'chatzorida g'o'zaning gullashi bo'yicha taxliil va kuzatuvlar o'tkazilganda, jadvaldan ko'rinib turibdiki barcha liniyalarda bir xil ya'ni 58 kunda 50 % gullaganligi qayd etildi. Konkurs nav sinash tajriba dalasida kuzatuvlar natijasida taxliil qilinganda andoza Surxon-14 naviga nisbatan Termiz-235 yangi navi 50% gullashi 1.5 kunga kech gullashi qayd etildi. Boshqa navlar esa andoza

nav bilan bir xil yani 57 kunda gulga kirganligi aniqlandi.

G'ozaning 50 % pishishi taxlil qilinganda, andoza Surxon-14 naviga nisbatan L-96, L-205, L-128 tizmalar 1-1,3 kunga erta pishib yetilganligi aniqlandi.

Xulosa shuki, ingichka tolali navlar ekstrimal ob-havo

sharoitlariga, suvsizlik va garmisel, zararkunanda hasharotlarga chidamliligi, etarpisharligi bilan ahamiyatli. Tolasining uzunligi, pishiqiligi va tekstilbopligi bilan jahon bozorida xaridorgir. Boshqa navlar bilan mehnat va resurs sarfi bir xil bo'lgani holda ingichka tolaning iqtisodiy samaradorligi 60 foizga ko'proq bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev A.A., Klyat V.P., Rizaeva S.M., Ernazarova Z.A., Kuryazov Z.B., Arslanov D.M. G'ozaning yovvoyi ajdodlarining potensiali va ularning madaniy navlarni yaratishdagi imkoniyatlari. //O'zbekiston biologiya jurnali. –Toshkent, 2006. -№6. -B.63-69.
2. B.Amanturdiyev, M.Kruma. G'ozaning G.hirsutumL. va G.barbadenseL. turlariga mansub navlar o'rtasidagi F1 geterozislik xossasini o'rganish //O'zG'SUITI ning ilmiy asarlar to'plami. –Toshkent, 1993. –B.15-19.
3. Nomozov SH., Siddiqov A. Genetik jihatdan kelib chiqishi turlicha bo'lgan g'ozaning navlarini chatishtirishda asosiy xo'jalik belgilarining irsiylanishi. //O'zG'SUITI ning ilmiy asarlar to'plami. –Toshkent, 2002. – B. 143-145.
4. Saydaliev X., Mamaraximov B., Xalikova M. G'ozaning turlararo duragaylaridagi belgilarning shakllanishiga takroriy chatishtirishning ta'siri. –Toshkent, 2015. -96 b.
5. Karshieva U. S. H. STUDIES OF VARIETIES AND VARIETALS OF WINTER SOFT WHEAT BY STEM HEIGHT AND LODGING RESISTANCE //Journal of Modern Educational Achievements. 2023. – T. 5. – №. 5. – S. 83-88.

UO'T: 633.51:631.542.25

INGICHKA TOLALI G'O'ZA NAVINING HOSILDORLIGIGA DEFOLIANTLARNING TA'SIRI

Kodirov Axmadjon Abduraufovich, q.x.f.f.d., (PhD),

TAIRI O'simlikshunoslik, dorivor o'simliklar va manzarali bog'dorchilik kafedrasini mudiri.

Annotatsiya. Surxondaryo viloyatining o'tloqlashib borayotgan taqirsimon tuproqlar sharoitida ingichka tolali g'o'za ko'saklarini ochish uchun Suyuq-XMD 8,0-9,0 l/ga va UzDEF-7,0-8,0 l/ga me'yorida defoliantdan foydalanildi. G'o'zaning ingichka tolali "Termiz-202" navining ko'saklari 30-40% va 40-50% ochilganda va bargining to'kilishiga qarab paxta hosildorligi o'rtacha 34,6-35,2 s/ga va 34,8-35,9 s/ga tashkil etganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ingichka tolali "Termiz-202" g'o'za navi, Suyuq-XMD, O'zDEF, defoliant, ko'saklar ochilishi, hosil.

Аннотация. В условиях такыровидных почвах признаками олуговения Сурхандарьинской области применение дефолианта Жидкий ХМД нормой 8,0-9,0 л/га и УзДЕФ нормой 7,0-8,0 л/га при раскрытии коробочек 30-40% и 40-50% на тонковолокнистом сорте хлопчатника Термиз-202 в зависимости от оподения листьев и раскрытия коробочек урожай хлопка-сырца в среднем составил 34,6-35,2 ц/га и 34,8-35,9 ц/га.

Ключевые слова: Тонковолокнистый сорт хлопчатника "Термиз-202", Жидкий-ХМД, УзДЕФ, дефолиант, раскрытие коробочек, урожай.

Abstract. In the conditions of takyr-like soils with signs of alluvial growth in the Surkhandarya region, the use of defoliant Liquid KMD with a rate of 8.0-9.0 l / ha and UzDEF with a rate of 7.0-8.0 l / ha for opening of bolls of 30-40% and 40-50% on fine-fiber cotton variety Termiz-202, depending on leaf maturation and opening of bolls, the yield of raw cotton averaged 34.6-35.2 c / ha and 34.8-35.9 c / ha.

Keywords: fine-staple cotton variety "Termiz-202", Liquid-KMD, UzDEF, defoliant, opening of bolls, harvest.

Respublikamiz paxta maydonlarida asosan Suyuq-XMD, Super-XMD, O'zDEF, Avguron-ekstra, Ento-defol, defoliantlaridan foydalanib, sun'iy bargsizlantirib kelinmoqda. Biroq, shuni ham e'tirof etish kerakki, har bir yangi ingichka tolali g'o'za navida ushbu defoliantlarning maqbul me'yori va muddatlarini ishlab chiqish kerak. Sababi, defoliantlar qachonki maqbul me'yordagi qo'llanilsagina, uning samaradorligi yuqori bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan ingichka tolali "Termiz-202" g'o'za navida Suyuq-XMD va O'zDEF defoliantlarini turli me'yordagi qo'llab, ularni maqbul muddat va me'yorlarini aniqlash bo'yicha 2018-2020 yillarda ilmiy-tadqiqotlar olib bordik.

G'o'za defoliatsiyasi sifatli, maqbul me'yori va muddatlarda o'tkazilsa, g'o'za barglari to'kilibgina qolmay, balki qator oralari havo aeratsiyasi yaxshilanib, ko'saklar samarali haroratdan ko'proq foydalanadi va pishib yetilishi erta bo'lishi hisobiga hosil salmog'i va sifati ortadi. Qolaversa, xalqimiz rizqi hisoblangan g'allani maqbul muddatlarda ekish imoni yaratiladi [1,2,3].

Tajribalar PSUEAITI ning Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi tajriba xo'jalik dalalarida olib borildi. Tajriba uslubiy qo'llanmasiga (Dala tajribalarini o'tkazish uslublari, O'zPITI 2007 y) asosan o'tkazilib, Suyuq-XMD (8,0-9,0-10,0 l/ga) hamda O'zDEF (7,0-8,0-9,0 l/ga) defoliantlarining turli me'yorlari ingichka tolali "Termiz-202" g'o'za navining ko'saklari 30-40% va 40-50% ochilgan muddatlarda qo'llanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba o'tkazilgan yillarda defoliantlarning barglar to'kilishi, ko'saklar ochilishi va paxta hosildorligiga ta'siri o'rganilganda, qolgan (2019-2020) yillarda ham bir-biriga yaqin qonuniyat kuzatilganligi sababli, 2018-yilgi ma'lumotlar keltirildi.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, defoliatsiyadan oldin o'simlikning biologik holati aniqlanib, 1-muddatda o'simlikning bo'yi 106,0 sm. ni, yashil barglar soni 20,3 ko'saklar soni 18,4 donani va shundan ochilganlari 35,7% ni, 2-muddatda esa o'simlikni bo'yi 105,7 sm. ni, yashil barglar soni 21,6 donani,